

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARI MUSIQA
MASHG‘ULOTLARIDA MUSIQIY RITMIK HARAKATLAR FANIDAN
MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI MUSIQA MASHG‘ULOTLARIDA MUSIQIY RITMIK HARAKATLAR FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Musiqa nazariyasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari musiqa mashg‘ulotlarida musiqiy-ritmik harakatlar

1. Musiqa nazariyasi;
2. Musiqa metodikasi;
3. O‘zbek xalq musiqa madaniyati;
4. Xorij musiqa madaniyati;
5. Musiqiy faoliyat turlari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Musiqqa nazariyasi.	Musiqiy tovushlar, tovushqator, diapozon, registr, oktava, ritm, musiqiy kalitlar, takt chizig'i, alteratsiya belgilari, ladlar, dinamik belgilari haqida umumiy tushunchalarni bilishi kerak.	10 ta
2	Musiqqa metodikasi.	Vokal malakasi, xor malakasi, vokal ovoz turlari haqida umumiy tushunchalarni bilishi kerak.	6 ta
3	O'zbek xalq musiqqa madaniyati	O'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari, o'zbek xalq milliy cholg'u sozlari, maqom san'ati tarixini bilishi kerak.	10 ta
4	Xorij musiqqa madaniyati.	Xorij musiqqa madaniyatini bilishi kerak.	7 ta
5	Musiqiy faoliyat turlari.	Musiqqa mashg'ulotida tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakat, bolalar sholg'u sozlarida ijroga o'rgatish faoliyat turlarini musiqqa mashg'ulotlarida to'g'ri tashkil qilishni bilishi kerak.	7 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test

2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. G.M.Sharipova,G.T.tojiyeva "Musiqqa metodikasi" Toshkent, 2012.
2. N.Yusupova "musiqqa savodi,metodikasi va ritmika" Toshkent, 2010.
3. R.Qodirov "Ommabop musiqiy glossariy" Toshkent, 2014.
4. Музыкальная энциклопедия.
5. V.Vaxromeyev. Musiqaning elementar nazariyasi. Toshkent, 1983 y.
6. Q.N.Toxtasheva "Bolalarning musiqiy ta'limi" Toshkent 2023.
7. H.Nurmatov,N.Norxo'jayev,A.Mirrahimov "Musiqqa 3"

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.